

**UMUMIY PSIXOLOGIYADAN 300 TA SAVOL VA
JAVOBLAR JAMLANMASI**

1. Ontogenez psixologiyasi bu?

2. Psixologiya fanida ontogenezni davrlarga tabaqlash bo‘yicha qator mustaqil nazariyalar mavjud bo‘lib, ular qaysi nazariyalar va ulardan biri haqida ma’lumot bering?

3. Biogenetik nazariya asoschilar?

4. Ontogenez tushunchasiga ta’rif bering.

5. Filogenez tushunchasiga ta’rif bering.

6. Ontogenez psixologiyasi qachon vujudga kelgan?

7. Psixik taraqqiyot qonuniyatlaribu?

8. Ko‘nikma nima?

9. Malaka nima?

10. 3 yosh inqirozi sabablari?

11. Empatiya bu?

12. Gerontopsixologiya nima?

13. Bog‘cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanish davrlari 3 bosqichga bo‘linadi, bular qaysilar?

14. Savol. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o‘yin bo‘lib, bu yoshdagi bolalarning o‘yinlarini 3 ga bo‘lish mumkin, o‘yin turlarini sanang.

15. Savol. 3 yosh krizisi (inqirozi) qanday xatti-harakatlarda ifodalanadi?

16. Savol. Bolaning psixik rivojlanishini ta’minlovchi omillar?

17. Savol. Bog‘cha yoshidagi bolalarning bilish jarayonlarining rivojlanishi haqida ma’lumot bering?

18. Go‘daklik davrida asosiy yetakchi faoliyat?

19. Chaqaloqlik qaysi davrlarni o‘z ichiga oladi?

20. Bir yoshgacha bo‘lgan bolalarning psixik rivojlanishidagi asosiy yangi o‘zgarishlar qaysilar?

21. Savol. Bola rivojlanishida jamiyatni anglash borliqni o‘zlashtirishda asosiy faoliyat turini ko‘rsating?

22. Savol: Alsgeymer kasalligi?

23. Savol. O‘spirinlik davri qanday psixologik xususiyatlari bilan boshqa davrlardan farq qiladi?

24. Savol. O‘spirinlik davrining ijtimoiy psixologik holati qanday ifodalanadi?

25. Savol. O‘smirlar bilan kattalar o‘rtasidagi nizolarning kelib chiqish sabablari nimalarda aks etadi?

26. Yosh davrlar psixologiyasi qanday fan?

27. Go‘daklik davrining xususiyatlarini o‘rgangan olim L.S.Vigotskiy qaysi asarida bolaning voqelikka munosabati haqida fikr yuritgan?

28. «Katta yoshdagi odamlar go‘dakni qurshagan voqelikning markaziy siymosi, muhim tarkibiy qismi hisoblanib, uning har qanday ehtiyojini qondirish bilan bog‘liq muammolar uchun tayanch nuqtasi vazifasini bajaradilar. Go‘dak onadan ajralgan bo‘lsa ham aslida u bilan ijtimoiy bog‘liqligicha qoladi». Ushbu fikr kimga tegishli?

29. Savol. Fayans go‘daklar uchun chiroyli va jozibador o‘yinchoqlar orqali qanday tajriba o‘tkazgan va qanday natijalarga erishgan?

30. Savol. Go‘dakda ijtimoiy ta’sirlanish ortib borishini atroflicha tadqiq qilgan olim kim?

31. Savol. Bolada qo‘rquv hissi qanday hollarda vujudga keladi?

32. Savol. Yoshlik davridagi ijtimoiy faollik haqida ma’lumot bering.

33. Savol. D.B.Elkonin va B.S.Muxinaning fikricha, bolada necha oyligidan boshlab jismlarni ushlash harakati boshlanadi?

34. Go‘daklar necha oyligidan boshlab yotgan joyidan turib o‘tirishga harakat qiladilar?

35. Demensiya qanday kasallik?

36. Umum ilmiy usullar qaysilar?

37. Tug‘ilgan chaqaloqda qanday sifat o‘zgarishlari kuzatiladi?

38. Chaqaloqda qanday reflekslar kuzatiladi?

39. Chaqaloqlik davrida xulq-atvorning tug‘ma instinctiv ko‘rinishlari nimalardan iborat?

- 40.** Chaqaloqlik davrida «sudralish» jarayoni nimadan iborat?
- 41.** Kindik tushish davridagi o‘zgarishlar?
- 42.** Liqildoq nima?
- 43.** Chaqaloqning asosiy xususiyatlari?
- 44.** Figurinning chaqaloqlik davriga oid tajribalari?
- 45.** Chaqaloqda his-tuyg‘uning jonlanishi qanday kechadi?
- 46.** «Jonlanish» jarayoni nimadan iborat?
- 47.** Bir yoshli va bir yoshu ikki oylik bolada turli narsalar bilan harakat qilishning oddiy turi jadal rivojlanishi kimning tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan?
- 48.** Bir yoshli va undan sal oshgan bolada qanday vaziyatlarda uning ruhiy dunyosida dastlabki jazava (affektiv) tuyg‘u va hislarni vujudga keladi?
- 49.** Kuzatish metodi haqida ma’lumot bering.
- 50.** Bolada paydo bo‘ladigan qanday holat go‘daklik davridan ilk bolalik davriga o‘tishining eng muhim jihatni va sharti hisoblanadi?
- 51.** F.I.Fradkinaning ma’lumotiga ko‘ra, bolaning nutq boyligining o‘sishi qanday bo‘ladi?
- 52.** Suhbat metodi haqida ma’lumot bering.
- 53.** Tushunishning eng qulay (senzitiv) davri necha yoshni o‘z ichiga oladi?
- 54.** Bola necha yoshida ona tilining grammatic qoidalariga muvofiq gap tuzishga harakat qiladi?

55. Test metodi haqida ma'lumot bering.

56. «Bolada avval unli harflarni, keyin undosh harflarni farqlash ko'nikmasi vujudga keladi». Ushbu fikr kimga tegishli?

57. Yetuklik ontogenezdagi nisbatan uzoq davom etadigan davrlardan biridir. Odatda yetuklikning uch bosqichi ajratiladi. Bular qaysilar?

58. Hayot faoliyatining eng ijtimoiy faol va mahsuldor davridir, u kattalikning shunday davriki, unda shaxs va intellekt rivojlanishining eng yuksak darajasiga erishiladi. Qadimgi greklar bu yoshni va ruh holatini «akte» deb atashgan, »cho'qqi», oliy bosqich, gullagan davr degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu ta'rif qaysi yosh davriga berilgan?

59. O'z-o'zini namoyon qiladigan shaxslar elementar ehtiyojlarini qondirish bilan chegaralanib qolmaydi, haqiqat, go'zallik, yaxshilik kabi oliy qadriyatlarga intiladi. Ular o'z faoliyatlarida yuksak cho'qqilarga intiladilar. O'z-o'zini namoyon qilish uchun o'z ustida tinmay ishlashni talab qiladigan jarayondir». Yetuklik davri haqidagi ushbu fikrlar kimga tegishli?

60. Mashhur gollandiyalik psixolog va psixoterapevt B.Divexud kattalar hayotidagi 7 yillik bosqichlarni ajratgan Uotering davrlashtirishini misol sifatida keltiradi. Ikkinci jinsiy yetilish, kasbiy maqsadlarga yo'nalganlik davri sifatida qaysi yoshlar oralig'ini asos qilib oladi?

61. Yosh davrlarining qaysi birida insonlar keksalik davriga o'tayotgan ota-onalari va ota-onasi uyidan alohida chiqib mustaqil hayot boshlayotganlar orasidagi holatni egallaydi?

62. Yetuklik davrini birinchilardan bo'lib davrlashtirgan Sh.Byuler nimani asos qilib oladi va yetuklikning nechta bosqichini ajratgan?

63. G. Olportning ta'kidlashicha, shaxsning yetukligi motivatsiyasining nimasi bilan belgilanadi?

64. Inson hayotining «ikkinci yarmiga» juda qiziqqan. Hayotning o'rtasini u «ruhning chuqur va qiziqarli o'zgarishlari» ro'y beradigan kritik davr sifatida qaragan olim nomini keltiring.

65. Amerikalik olima G.Shixi, Levinsonning tadqiqotlaridan ilhomlanib, shunday izlanishlarni ayollarda o'tkazadi. Uning tadqiqotlari ham Levinson natijalarini tasdiqladi. Dastlabki inqiroz ilk yetuklikka o'tishda, 20-22 yoshda namoyon bo'lib, bu davr qanday nom bilan ataladi?

66. R.Pek bu yosh davrida 4 inqirozning kuzatilishini va ularning hal qilinishi navbatdagi shaxsiy rivojlanishi uchun zarur sharoit hisoblanishini ta'kidlaydi. Bu qaysi yosh davri va shu 4 bosqichni sanang.

67. Erikson nazariyasiga ko'ra, o'rta yetuklik davrining o'ziga xos ajralib turadigan tomonlarini ayting.

68. V.A.Krutetskiy o'spirinlarda uchrashi mumkin bo'lgan motivlardan qaysilarini alohida ta'kidlab o'tadi?

69. O'spirinlik davrida yuzaga keladigan yangi xususiyatlar nimalardan iborat?

70. 7 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan davrda verbal va noverbal intellekt rivojlanishi bir xilda kechadimi?

71. 40 yosh inqirozi

72. «Akseleratsiya» terminining ma'nosi nima va nazariyalaridan biri haqida ma'ulot bering?

73. Yoshlarning ijtimoiy hayotdagi faol ishtirokini o'rgangan V.Shevchuk ijtimoiy faoliyatga kirishishning eng yuqori cho'qqisi necha yosh ekanini aniqlagan va ushbu holat odamlarning qancha foizida bo'lishini ma'lum qilgan?

74. Ziyolilarda ilmiy faoliyatning o'sish dinamikasini tadqiq etgan Z.F.Esareva, uning boshlanishi matematiklarda 18-23, fiziklarda 24-27, biologlarda 25-31, tarixchilarda 27-32, filologlarda 28-33 yoshlaarni tashkil etishini ko'rsatib o'tadi. Bu davr psixologlarda necha yoshlarni qamrab oladi?

75. Psixik funksiyalar rivojlanish mexanizmlarida quyidagi xususiyatlar aniqlandi: psixofiziologik funksiyalar rivojlanishi ikki fazali xarakterga ega. Birinchi bosqich - funksiyalar taraqqiyotida frontal rivojlanish bo'lib, tugallangandan ilk yoki o'rta yetuklikkacha kuzatiladi. Ikkinci bosqichni izohlang.

76. O'spirinlarda sevgi hissi bir qancha holatlarga bog'liq. Bular qaysilar?

77. Amerikalik olim G.Djons 12 yoshli o'smirlar va 17 yoshli ilk o'spirinlarning emotsiyonal reaksiyalarini (teri-galvanik reaksiyalari) solishtirdi. U so'zli qo'zg'otuvchilarni yoqimli, yoqimsiz va befarqlarga ajratgan. Tajriba natijalaridan qanday xulosaga kelingan?

78. O'spirinlar xulq-atvori buzilishiga olib keladigan sabablarining psixologik xususiyatlari Z.F. Kamaletdinova ishlarida yoritilgan. Muallif olib borgan tadqiqotlari natijasida deviant xulqning vujudga kelishi g'oyaviy-mazmuniy xarakterga ega ekanligini ta'kidlab, uning vujudga kelishiga sabab bo'luvchi ikki omilni ko'rsatib o'tadi: birinchisi, o'quvchining doimiy ravishda qoniqarsiz baho olishi natijasida diqqati, intellektual tushuncha bilan bog'liqlik harakatlari pasayib ketishi bo'lsa, ikkinchi omilni aytin.

79. O'zbekistonda E.G'. G'oziyev rahbarligida J.S.Iskenderov tomonidan pedagogika kolleji o'quvchilarida xarakterning intellektual va irodaviy xususiyatlari shakllanishini baholashda qanday tizimdan foydalanishning samarali yo'llari ishlab chiqildi?

80. O'smir va o'spirinlardagi emotsiyonal reaksiyalar faqat garmonal o'zgarishlarga bog'liq bo'lib qolmasdan yana qanday omillar orqali tasniflanadi?

81. Kasbiy niyatlarining barqarorligini o'rganish yuzasidan N.I. Krilov o'tkazgan tekshirishlar natijasida qanday xulosaga keldi?

82. E. Erikson hayotiy siklni sakkiz bosqich (faza)ga bo'ladi. Shu bosqichlardan beshinchi bosqich -o'spirinlik haqida nima deyilgan?

83. Ilk o'spirinlik haqida psixodinamik nazariyaning yirik namoyondasi mashhur amerikalik psixolog kim? Uning falsafiy-metodologik qarashlari freydistik-psixoanalizning davomi hisoblanadi.

84. 2-darajali jinsiy belgilarning paydo bo'lishiga ko'ra, ilk o'spirinlik davri 3 ga bo'linadi. Bular?

85. Qaysi rus psixologi ilk o'spirinlik davrida shaxs motivatsion sohasining rivojlanishiga urg'u beradi: o'quvchilarning hayotda o'z o'rnini va ichki pozitsiyasini

aniqlashi, dunyoqarashning shakllanishi va uning bilish faoliyatiga, o‘z-o‘zini anglashga va axloqiy ongga ta’siri nazarda tutiladi.

86. Qaysi yosh davri «kamolot bo‘sag‘asi» deb ataladi?

87. Psixodinamika haqida ma’lumot bering.

88. Erikson to‘rtinchi davr – maktab yoshidagi bola haqida qanday g‘oyalarni ilgari suradi?

89. E.Shpranger «O‘spirinlik davri psixologiyasi» nomli asarida bu davrga 13-19 yoshli qizlarni, 14-22 yoshli yigitlarni kiritishni tavsija qiladi. Uning fikricha?

90. Kognitivistik nazariya asoschilaridan biri J.Piaje ta’limoti haqida ma’lumot bering.

91. Psixogerontologiya fanida gerontogenez evolyutsion omillar qatoriga nasliy, ekologik, biologik, ijtimoiy alomatlarni kiritgan I.V.Davidoskiy asarining nomi?

92. D. Bromleyga ko‘ra, insonning qarish sikli nechta bosqichdan iborat?

93. Gerentologiya so‘zining lug‘aviy ma’nosi nima?

94. Eshitish qobiliyatining eng yuqori darajasi necha yoshlarga to‘g‘ri keladi.

95. Keksayish davriga nechi yosh erkak va ayollar kiradi.

96. Qariyalarda ijodiy tafakkurning pasayishi ,o‘ta qiyinchilik bilan yangi sharoitga moslashuv jarayonlarini tahlil qilib bergen olim?

97. So‘z assotsiyasi metodi asosida keksalarda xotira jarayonining xususiyatlarini tekshirgan olim?

98. Yetuklik davrining ikkinchi bosqichidagi qarilik alomatlari nechi yoshlarda yaqqol kuzatiladi.

99. Yetuklik davridagi erkak va ayollarning o‘zligini anglashdagi Men obraz shakli nechi xil ko‘rinishda aks ettiriladi va ular qaysilar?

100. Retrospektiv men ya’ni o’tmishdagi o‘zligini aks ettirish holati qaysi yosh xususiyatida aks etadi.

101. Yetuklik davrining ikkinchi bosqichi yoshlik davridan qanday xususiyatlari bilan farq qiladi.

102. Keksalik davrida miyaning og‘irligi nechi foizga qisqarib miya bilan kalla suyagining hajmi o‘rtasida disproporsiya kuchayadi natijada yetuk yoshdagi odamlarga nisbatan miyaning zichligi ortadi

103. Eshitish qobiliyatining eng yuqori darajasi 14-15 yoshlarga to‘gri kelsa qarilik davrida kelib qaysi jins vakilida eshitish uquvi batamom susayadi.

104. Keksayish davri yetuklik davridan qaysi xususiyatlari bilan farqlanadi.

105. Ruhiy keksayish alomatlari qaysi jins vakilida ertaroq paydo bo‘ladi.

106. Hozirgi zamon kishilarning o‘rtacha umr ko‘rishi XX asr boshlariga nisbatan nechi marotaba uzaygan

107. Uzoq umr ko‘rishning psixologik omillariga nimalar kiradi

108. Uzoq muddatli xotiraning kuchsizlanish holati qaysi yoshga kelib yaqqol namoyon bo‘ladi.

109. Aktual men holati qanday ma’noni ifodalaydi.

110. Sensor-perseptiv funksiyalarning qarish holatlarni o‘rgangan olimlardan kimlarni bilasiz?

111. Qaysi yoshdagi bola idrokning o‘tkirligi, ishonuvchanligi, xotiraning kuchliligi, tafakkurning yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi?

112. Kichik maktab yoshi qaysi yoshlarni o‘z ichiga oladi?

113. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchining muhim xususiyatlaridan biri?

114. Kichik maktab yoshidagi bolalarda xotiraning qaysi turi yaxshi rivojlangan bo‘ladi?

115. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda diqqatning qaysi turi nisbatan yaxshi rivojlangan bo‘ladi?

116. Qaysi yoshda aynan analiz va sintez qilish hamda taqqoslashni mashq qilish natijasida narsa va hodisalarining muhim belgilarini tasodif belgilardan ajratishni o‘rganadi?

117. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar tafakkurining rivojlanishida nutqning o‘sish bilan bog‘liq muammolarni o‘rgangan olim kim?

118. O‘qituvchi shaxsiga nisbatan ishonch hissi va yuksak obro‘ tuyg‘usining mavjudligi bilan qaysi yosh xususiyatiga bog‘liq?

119. Qaysi olim kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar tafakkurini o‘stirish maqsadida o‘zining ta’lim tizimini ishlab chiqdi?

120. Necha yoshdagi bolalarda nutq boyligi 2500 taga yaqin so‘zdan iborat bo‘ladi?

121. Pedagogik psixologiya qanday fan?

122. Pedagogik psixologiyaning predmetini izohlang.

123. Pedagogik psixologiya qanday bo‘limlardan iborat?

124. Pedagogik psixologiyaning muammolaridan biri hisoblangan bolaning rivojlanishida uning hayotidagi har bir senzitiv davrni topish va undan iloji boricha ko‘proq foydalanish muammosini izohlab bering.

125. Pedagogik psixologiyaning muammolaridan yana biri - Bolaga ongli tashkil etilgan pedagogik ta’sir va uning psixologik taraqqiyoti orasidagi bog‘lanish muammosini izohlang.

126. Pedagogik psixologiyaning muammolaridan yana biri - Ta’lim va tarbiyaning umumiy va yosh muammolarini izohlang.

127. Pedagogik psixologiyaning muammolaridan yana biri - bolaning ongli ta’lim va tarbiyaga psixologik tayyorligi muammosi deganda nima nazarda tutiladi?

128. Pedagogik psixologiya fan sifatida qachon tarkib topgan?

129. Psixik taraqqiyotning manbalari va uning ta’lim jarayoniga munosabati masalasi yosh va pedagogik psixologiyaning markaziy muammosi bo‘lishiga nima sabab bo‘ldi?

130. 30-yillarning boshlarida nima sababdan pedologiyani keskin tanqid qilinish boshlandi?

131. Imom Buxoriy «Kishi ilm bobida nafaqat o‘zidan yuqori yoki tengdoshlaridan, balki o‘zidan past bo‘lganlardan hadis olmaguncha, yetuk muhaddis bo‘la olmaydi», deganda nimaga urg‘u beradi?

132. Pedagogik psixologiyaning tamoyili hisoblangan determinizm tamoyili nimani anglatadi?

133. Ta’lim va rivojlanish muammosiga doir nazariyalardan biri V.V.Davidov nazariyasining mohiyatini tushuntiring.

134. Ta’limning muvaffaqiyatiga sabab bo‘ladigan asosiy psixologik omillardan biri o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan munosabati nimalarda namoyon bo‘ladi?

135. Ta’lim jarayoni, avvalo, o‘quvchilar diqqatini rivojlantirishni talab etadi. O‘quvchilar diqqatini rivojlantiradigan omillarga nimalar misol bo‘ladi?

136. Ta’limni individuallashtirish deganda nima tushuniladi?

137. O‘quv faoliyati nima?

138. Ta’lim nima?

139. O‘qish nima?

140. O‘rganish nima?

141. O‘rganish biologik yetilish bilan bog‘liqmi?

142. O‘rganish turlaridan biri bo‘lgan — imprinting mexanizmi bo‘yicha o‘rganish tushunchasini izohlab bering.

143. O‘rganishning shartli reflektor turini izohlang.

144. O‘rganishning uchinchi turi operant o‘rganishni tushuntiring.

145. O‘qish bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun ongli, maqsadga yo‘naltirilgan qobiliyat sifatida bolada necha yoshida namoyon bo‘ladi?

146. O‘rganishning muvaffaqiyati qanday omillarga bog‘liq?

147. O‘quv faoliyatida o‘quv motivlari nimalarga bog‘liq?

148. O‘quv motivatsiyasining ichki manbalarini nima tashkil etadi?

149. O‘quv faoliyatini boshqarishning tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?

150. O‘quv jarayonining boshqarilishi ikkita asosiy maqsadni ko‘zda tutadi. Ular qaysilar?

151. Pedagogik jamoa nima?

152. Pedagogik muloqot chog‘ida namoyon bo‘ladigan kommunikativ qobiliyat nima?

153. Pedagogik qobiliyat nima?

154. Didaktik qobiliyatlar qaysilar?

155. Akademik qobiliyatlar qaysilar?

156. Pedagogik qobiliyatni aniqlash uchun qaysi psixolog olim test tuzgan?

157. O‘qitishning emotSIONalligi ta’limning muvaffaqiyatliliginini ta’minlovchi omillardan biridir. O‘qitishning emotSIONalligi deganda nima tushuniladi?

158. Perseptiv qobiliyatlar nima?

159. Bu dars jarayoni va darsdan tashqari faoliyatlarni tashkil eta bilish, o‘quvchilar jamoasini uyushtira bilish va jipslashtira olish, shuningdek, o‘z shaxsiy ishlarini to‘g‘ri tashkil qila olish qobiliyatidir?

160. O‘qituvchining shaxsiy xislatlariga nimalar kiradi?

161. Pedagogik qobiliyatlarga nimalar kiradi?

162. O‘qituvchining o‘quvchini, tarbiyalanuvchini ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik qobiliyat qanday turdagи pedagogik qobiliyat hisoblanadi?

163. Kommunikativ qobiliyat nima?

164. Muammoli yondashuv nima?

165. Pedagogik taktning yaqqol ifodalaridan biri nima?

166. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyat nima?

167. N.V. Kuzmina ta’rifiga ko‘ra, pedagogik faoliyatning muhim jihatni nima?

168. Pedagogik faoliyatning predmeti?

169. Andragogika tushunchasi qachon kim tomonidan fanga kiritilgan?

170. Andragogika nima?

171. O‘qituvchining o‘z-o‘zini tuta bilishi deganda nimani tushunasiz?

172. Kattalar ta’limining asosiy funksiyalari nimalardan iborat?

173. Pedagogning psixologik jihatdan o‘z ustida ishlash deyilganda nima tushuniladi?

174. Qaysi psixolog olim yigit-qizlarning kasbiy tayyorgarlik davrini to‘rt bosqichga ajratadi?

175. O‘quvchilar tomonidan ba’zi bir axloqiy tushunchalar va tasavvurlarning o‘zlashtirilishi va ularning bola shaxsiga bolgan ta’siri kim tomonidan tadqiq etilgan?:

176. Shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni belgilang.

177. «Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste’dodga, ilmga, mashqqa». Ushbu fikr muallifini aniqlang.

178. Tarbiya ta’siri qanday tarbiya obyektiga qaratilganligiga ko‘ra uning vositalari qaysilarga bo‘linadi:

179. Kognitiv tarbiya ta’siri nimalardan iborat?

185. Psixologiya fani dastlab qaysi fanlar negizida vujudga kelgan?
186. Psixologik voqelik - fakt deganda nima tushuniladi?
187. Psixologiya fani sifatida nimilarni o‘rganadi?
188. Miya katta yarim sharlari faoliyatining umumiy qonunlari kim tomonidan kashf etilgan?
189. Psixika nima?
190. Eksperimental psixologiya nima?
191. Neyropsixologiya nima?
192. Parapsixologiya nima?
193. Bolalar o‘yinlarining dastlabki ilmiy tahlili qachon kim tomonidan amalga oshirilgan?
194. Shaxsning eng muhim xususiyatlari jihatlaridan biri?
195. Analizator nima?
196. Ongga ta’rif bering.
197. Ontogenetika tushunchasiga ta’rif bering?
198. Refleks tushunchasiga ta’rif bering?
199. Psixologiya fanida ehtiyojlar o‘z predmetining xususiyatiga ko‘ra turlari qaysilar.
200. Diqqatning barqarorligi deganda nimani tushinasiz?
201. Psixolog N.V.Kuzminaning fikricha, o’qituvchilarning dars davomida berilayotgan bilimini qanchalik o’zlashtira olishini tekshirishda, asosiy va yetakchi rolni qasi bilish jarayoni o‘ynadi?

202. B.G.Ananyev «O'quvchilarda diqqatni tarbiyalash» nomli asarida diqqatni hamma vaqt tekshirish, tadqiq qilish kerak, deydi. Buning uchun mana qanday holatlarga e'tibor qilishni ko'rsatib o'tadi?

203. N.N. Lange diqqat muammosini o'rghanishning qadimgi davrdan boshlab, to XIX asrgacha bo'lgan rivojlanish bosqichini nechta turkumga ajratgan holda tahlil qiladi?

204. Taniqli psixolog D. N. Uznadzening diqqatni ustanovka bilan bog'lash nazariyasiga qaysi olim qarshi chiqgan?

205. Sensor ustanovka nima?

206. Motor ustanovka?

207. A.A.Uxtomskiyning ta'rifiga binoan, dominanta nima?

208. Diqqat depressiyasi bu nima?

209. O'qituvchi shaxsiga nisbatan ishonch hissi va yuksak obro' tuyg'usining mavjudligi qaysi yosh davri xususiyatlariga bog'liq?

210. Ko'rvuv diqqati nima?

211. Dominanta tushunchasi fiziologiya faniga kim tomonidan kiritilgan?

212. Xayol jarayonlarining, shu jumladan fantaziya obrazlarining vujudga kelishi inson miyasi faoliyatining mahsuli hisoblanib, bosh miya katta yarim sharlarining qaysi qismi orqali amalga oshadi?

213. Tipizatsiya fenomeni yordami bilan xayolda qanday sintezlar ro'yobga chiqishi mumkin?

214. Giperbolizatsiya fenomeni xayol obrazlarini hamda tasavvur shakllarini o'zlashtirish qaysi psixik jarayon yaqindir?

215. Giperbolizatsiya nima?

216. Xayolning muhim tomonlaridan biri nima?

217. Xayolning bilish jarayoni sifatidagi asosiy vazifasi nima?

218. Yozma nutq qanday tarkiblardan tashkil topadi?
219. Nechi yoshdagи bolalarda nutq boyligi 2500 taga yaqin so‘zdan iborat bo‘ladi?
220. Individ so‘zi qaysi tildan olinga? Nima ma’noni anglatadi?
221. Biogenetik qonunni kimlar kashf qilishgan.
222. Shaxsning individual psixologik xususiyatlari deganda nima tushuniladi?
223. Individual psixologik xususiyatlariga qanday xususiyatlar kiradi?
224. Biogenetik qonunga ko‘ra?
225. «Rekapitulyasiya qonuni»ning qisqacha ma’nosи?
226. «Konstitutsion psixologiyasi» insonning tana tuzilishiga asoslagan nazariya kim tomonidan ishlab chiqilgan?
227. Sotsiogenetik yondashuv nima?
228. Rollar nazariyasi nima?
229. Ehtiyojlar piramidasi nazariyasi kimga tegishli?
230. Ontogenez nima?
231. Vegetativ nerv tizimi nima?
232. «Rekapitulyasiya qonuni» kim tomonidan yaratilgan?
233. «Konstitusion psixologiya»ning qisqacha mazmuni?
234. Krechmer nazaryasiga ko‘ra odamlar nechta tipga bo‘linadi?
235. Z.Freyd ta’limoti asosi nimadan iborat?
236. «Fazoviy zarurat maydoni» nazariyasi kim tomonidan yaratilgan?
237. «Fazoviy zarurat maydoni» nazariyasi mazmuni?

238. E.Erikson shaxs rivojini 8 ta davrga ajratadi va ularning har qaysisi o‘ziga xos betakror xususiyatga egaligini ta’kidlaydi. Shu 8 ta davrning 1-bosqichi qaysi davr?

239. Shaxs nima?

240. O‘z-o‘zini anglash necta tarkibiy qismdan iborat?

241. «Endopsixika» nimani o‘rganadi?

242. «Ekzopsisixika» nimani o‘rganadi?

243. E’tiqod nima?

244. Diqqat turlari qaysilar?

245. Diqqatning kuchi va barqarorligi deb nimaga aytildi?

246. Dominanta tushunchasini fanga kiritgan olim kim?

247. Sezgi deb nimaga aytildi?

248. Sezgi turlari qaysilar?

249. Insonlar tomonidan rang va yorug‘likni sezish, ko‘rish sezgilari orqali amalga oshadi va seziladigan ranglar qanday turlarga bo‘linadi.

250. Qarorga kelish deganda nima tushuniladi?

251. Negativ adaptasiya necha xil bo‘ladi?

252. Idrok deb nimaga aytildi?

253. Kim narsani yoki fazoni ko‘rish kinestezik, paypaslash assosiasiyalari orqali va boshqa sezgilarning assosiasiyasi orqali idrok etilishini izohlab bergen edi?

254. Appersepsiya nima?

255. Gallyusinatsiya nima?

256. Konvergensiya tushunchasi nima?

257. «U, - deb yozadi I.P.Pavlov, hayvonot olamida va bizning o‘zimizda ham bo‘ladigan eng umumiy fiziologik hodisadir. Shu bilan birga u psixik hodisa hamdir, turlituman harakat, taassurot bo‘lmasa harflar, so‘zlar va fikrlar o‘rtasida paydo bo‘ladigan bog‘lanishlar-ki, bu bog‘lanishlarni psixologlar assosiasiyalar deb ataydilar». Qaysi tushuncha haqida gap ketmoqda?

258. M.G.Davletshin tahriri ostida chiqqan «Umumiy psixologiya» o‘quv qo‘llanmasida qanday xotira klassifikasiyasi qayd qilinadi?

259. Rus psixologiyasida eydetik obrazlarning namoyon bo‘lish hodisasi kim tomonidan ko‘p yillar davomida o‘rganilgan va shunga ko‘ra eydetik xotiraning individual tipologik xususiyatlari chuqur ta’riflab berilgan?

260. Ixtiyoriy esda qoldirishda qanday turli usullardan foydalaniadi?

261. Qaysi olimlar tadqiqot ishlarining aksariyati xotiraga bag‘ishlangan bo‘lib, turli materialni esda olib qolishda tushinishning ahamiyati muhimligini tasdiqlashga intilgan?

262. Esda olib qolish va unutish tezligiga ko‘ra xotiraning qanday tiplari mavjud?

263. Bolalarda xotiraning yuksak (yuqori) shakllarini birinchi marta tadrijiy ravishda tadqiq qilishni kim amalga oshirdi?

264. Kim tomonidan «tafakkur voqelikning umumlashgan holda va so‘z hamda o‘tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi» ekanligi bayon qiladi. U tafakkurning umumlashgan so‘z vositasida va vositali atrof- muhit hodisalarini aks ettira olishni ta’kidlaydi?

265. Bu shunday bir tafakkur operasiyasidirki, biz narsa va hodisalarning analizda bo‘lingan, ajratilgan ayrim qismlarini, bo‘laklarini sintez yordami bilan fikran va amaliy ravishda birlashtirib, butun holiga keltiramiz. Bu qaysi operatsiya turi?

266. Konkretlashtirish nima?

267. Narsa va hodisalarning belgi va xususiyatlari haqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr nima deb ataladi?

268. Borliqdagi narsalar, hodisalar va voqelikni miqdoriga ularning biror hukmda aks ettirilgan aloqa va munosabatlariga qarab, hukm qanday turlarga bo‘linishi mumkin?

269. Xulosa chiqarish necha turga bo‘linadi?

270. Kimning ta'kidlashicha, insondagi biror-bir ruhiy hodisa ijtimoiy omilni hisobga olmasdan turib, to‘g‘ri tushuntirilishi mumkin emas. Bu narsa birinchi navbatda tafakkurga taalluqlidir. Tafakkurning ijtimoiy hayotning boshqa ko‘rinishlarisiz o‘rganish mumkin emas.

271. Aglyutinasiya nima?

272. Xayol deb nimaga aytildi?

273. Analiz, sintez, taqqoslash, abstraksiyalash va umumlashtirish, tasniflash va tizimga solish qaysi bilish jarayonlariga xos?

274. Shaxsning psixologik xususiyatlarga nimalar kiradi?

275. Biogenetik nazariya vakillari kim?

276. Personologik nazariyaning namoyondalaridan biri bular?

277. Kognitivistik yo‘nalishning asoschilari kimlar?

278. Xarakter deganda nima tushuniladi?

279. Xarakterning aksentuatsiyasi qanday ma’noni anglatadi?

280. Adabiy qobiliyat deganda nima tushuniladi?

281. Talant nima?

282. Kishining boshqa odamlar bilan bo‘ladigan muloqotni yaxshilaydigan va birligida faoliyatda psixologik qovushuvchanlikni ta’minlaydigan qobiliyat turi?

282. Shaxsning faolligi deganda nima tushuniladi?

283. Qiziqish nima?

284-Savol. Psixologiya fanida harakat tushunchasi tashlil qilinganida, qanday qismlarga ajratiladi?

285. Qiziqishning ahamiyati nimada?

286. Qiziqishni psixologik mohiyatining dastlabki ko‘rinishi?

287. Motiv nima?

288. E’tiqod nima?

289. Faoliyatga nisbatan anglanilmagan mayllar borasida eng ko‘p o‘rganilgan masala ko‘rsatma berishdir. Ko‘rsatma berish deganda nima tushuniladi?

290. Individuallik so‘ziga ta’rif bering?

291. «Men» - konsepsiyasiga ta’rif bering?

292. Shaxs tushunchasiga ta’rif bering.

293. Ixtiyorsiz diqqat nimalar bilan bog‘liq?

294. Ongning birinchi xossasi - bu anglash demakdir. Ushbu ta’rifning mazmunini izohlang.

295. Diqqatning kuchi va barqarorligi nima va uning qanday ahamiyati bor?

296. Diqqatning salbiy jihatlaridan birini ayting

297. Idrokning konstantligi deganda nima tushuniladi?

298. Harakat xotirasi nima?

299. Taqqoslash nima?

300. Temperament nima?